

HISSADORLIKKA ASOSLANGAN KRAUDFANDING FAOLIYATIDA INVESTOR HUQUQLARI HIMOYASI VA QIMMATLI QOG'OZLAR AYLANISHIDA VUJUDGA KELADIGAN MUAMMOLAR

Xudayqulova Nodira Qo'ldoshjonovna

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

nodirabegimxudayqulova@gmail.com

Annotatsiya: Kapitalni shakllantirishning yangicha vositasi sifatida hissadorlikka asoslangan kraudfanding faoliyati jadal rivojlanib borayotganligi sababli, ushbu maqola qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunning murakkab kesishishi va rivojlanayotgan bozorda investorlarni himoya qilishning rivojlanayotgan manzarasini o'rganadi. Tadqiqot hissadorlikka asoslangan kraudfanding faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazani tahliliy ko'rib chiqadi va qimmatli qog'ozlar aylanmasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash va investor manfaatlarini himoya qilish o'rtasidagi o'ziga xos keskinlikni muhokama qiladi. Tegishli qonunlar, qoidalar va ijro choralari har tomonlama tahlil qilish orqali maqola emitentlar va kraudfanding kampaniyalarida ishtirok etuvchi investorlar duch keladigan asosiy huquqiy muammolar va noaniqliklarni aniqlaydi. Bundan tashqari, u ushbu yangi mablag' yig'ish usuli bilan bog'liq xavflarni yumshatishda investorlarni himoya qilish mexanizmlarining samaradorligini o'rganadi. Mavjud tartibga solish asosi va uning oqibatlarini yoritib, ushbu ilmiy o'rganish hissadorlikka asoslangan kraudfanding faoliyati bilan bog'liq davom etayotgan munozaraga hissa qo'shish, kelajakdagi tartibga soluvchi o'zgarishlar haqida ma'lumot beradigan va ushbu dinamik moliyaviy ekotizimning umumiy barqarorligi va yaxlitligini oshirishi mumkin bo'lgan tushunchalarni taqdim etishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Hissadorlikka asoslangan kraudfanding, qimmatli qog'ozlar, investitsiya, investor huquqlar, biznes, startup.

Mavzuning dolzarbligi. Kraudfanding faoliyati shu nomdagi ijtimoiy munosabat sifatida paydo bo'lganiga ko'p bo'lmagan bo'lsa-da, uning faoliyat turlari uzoq yillardan beri boshqa nomlarda jamiyat tomonidan amalga oshirib

kelingan. Shu sababli mazkur munosabatlar amalda mavjud va o'xshash ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun-qoidalar asosida tartibga solib kelinmoqda. Shu jumladan, hissadorlikka asoslangan kraudfanding faoliyati ham amaldagi qimmatli qog'ozlar, aksiyadorik va investitsiya faoliyatlariga o'xshashligi uchun, aksariyat hollarda, dastlab mazkur faoliyatlarni tartibga soluvchi qonun normalari asosida tartibga solinadi. Misol uchun, 2012-yilgacha Amerika Qo'shma Shtatlarida hissadorlikka asoslangan kraudfanding faoliyati 1934-yilda qabul qilingan "Qimmatli qog'ozlar almashinuvi to'g'risida"gi qonun asosida tartibga solingan[1]. Biroq, hissadorlikk asoslangan kraudfanding faoliyatida qimmatli qog'ozlar faoliyati bilan farqli jihatlari mavjudligi yuzasidan bir qancha muammolar vujudga kelishi mumkin bo'ladi. Misol tariqasida, an'anaviy qimmatli qog'ozlar bozorida investorlar (aksiyadorlar) asosan, katta va mustahkam o'ringa ega bizneslarga pul tikishsa, hissadorlikka asoslangan kraudfanding faoliyatida investorlar nisbatan ko'p va kichik summalar evaziga ulush egalari bo'lgan shaxslar hisoblanadi[2]. Shunga ko'ra, ko'pgina davlatlarda hissadorlikka asoslangan kraudfanding faoliyatida investitsiya kiritish summasiga turli limitlar belgilanishi kuzatiladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, hissadorlikka asoslangan kraudfanding faoliyatida investorlar huquqlarini himoya qilish hisoblanadi. Sababi kraudfanding faoliyati asosan kichik va yangi tashkil topayotgan bizneslar va startaplarni moliyalashtirishi sababli, ularga tikilgan pulning qaytib kelish ehtimoli an'anaviy moliyalashtirishga nisbatan kam hisoblanadi. Bu esa investor uchun moliyaviy xavf hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi va usuli. nazariy qoidalar va amaliyotdagi muammolarni kompleks tadqiq etish asosida hissadorlikka asoslangan kraudfanding faoliyatida qimmatli qog'ozlar va investorlar huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq muammolarni yechimi yuzasidan tadqiq etish, ushbu sohada xorijiy davlatlar qonunchiligini o'rganish hamda mazkur sohadagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yuzasidan mavjud qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha nazariy va amaliy takliflarni ishlab chiqishdan, O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlar mutaxassislari va olimlari tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar va xulosalardan, xususan, kiber va moliya huquqi sohasiga oid qarashlaridan, shuningdek, rasmiy-yuridik, mantiqiy, qiyosiy-huquqiy va qiyosiy-tipologik tahlil metodlaridan keng foydalanildi.

Tadqiqotning natijalari. O'zbekiston Respublikasi normativ hujjatlarida hissadorlikka asoslangan kraudfanding va qimmatli qog'ozlar qonunchiligida investorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha huquqiy normalar o'rganildi, xorijiy davlatlarda ochiq banklar moliyaviy ma'lumotlariga kirish imkonini berish bo'yicha yaratilgan huquqiy tizimning zamonaviy holati va undan ko'zlangan maqsadlar tahlil qilindi va olingan tahlil asosida xalqaro normalar holati va mavjud milliy qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan xulosa chiqarildi

Tadqiqotning ilmiy-uslubiy ahamiyati. Ishning ilmiy-uslubiy ahamiyati tadqiqot O'zbekiston Respublikasining fuqarolik huquqi, kiber huquq, investitsiya va moliyaviy huquq sohalarida mavjud hissadorlikka asoslangan kraudfanding va qimmatli qog'ozlar qonunchiligida investorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha qonunchilikni tizimli va kompleks tadqiq etish orqali uni xorijiy davlatlar amaliyoti bilan tahlil qilish yordamida mavjud muammolarni yoritib beradi. Ishda bayon etilgan taklif va xulosalardan kiber huquqi, fuqarolik va moliya huquqi sohasidagi qonunchilik normalarini va huquqni qo'llash amaliyoti mexanizmini takomillashtirishda, ushbu sohada davlat tomonidan tartibga solish sohalarini rivojlantirishda foydalanilishi mumkin.

Xulosa. Hissadorlikka asoslangan kraudfanding faoliyatini huquqiy tartibga solish hozirgi kunga qadar davom etayotgan jarayon hisoblanadi[3]. ekanligini hisobga olgan holda maqolada tahlil asosida aniqlangan muammolar va ularga berilgan yechimlar asosida qimmatli qog'ozlar faoliyatini amalga oshirishda investorlar huquqlarini himoya qilishning ta'minlanishiga erishish mumkin bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasida hissadorlikka asoslangan kraudfanding faoliyatini tartibga soluvchi alohida shu sohaga oid normativ-huquqiy hujjatning yo'qligi yurtimiz qonunchiligida alohida normativ-huquqiy hujjatda ehtiyoj borligini ko'rsatadi. Shu sababli hissadorlikka asoslangan kraudfanding faoliyatini tartibga soluvchi qonun qabul qilish va shu asosda amaldagi qimmatli qog'ozlar hamda investitsiya faoliyatlarini tartibga soluvchi qonunlar bilan o'zaro integratsiyalashuvni ta'minlash, hissadorlikka asoslangan kraudfanding faoliyati ishtirokchilarini mazkur faoliyat turi bilan shug'ullanishlarini rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish orqali mazkur moliyalashtirish turini yurtimizda keng miqyosda faoliyati yo'lga qo'yilishiga imkoniyat yaratiladi.

REFERENCES:

1. Mokter Hossain and Gospel Onyema Oparaocha(2016). "Crowdfunding: Motives, Definitions, Typology and Ethical Challenges", *Entrepreneurship Research Journal*. 14:127-146
2. Lars Hornuf, Armin Schwienbacher (2017) "Should securities regulation promote equity crowdfunding?". *Small Business Economics*. 49:579-593
3. 3. Saul Estrin, Daniel Gozman, Susanna Khavul (2018). "The evolution and adaption of equity crowdfunding: entrepreneur and investor entry into a new market". *Small Business Economics*. 51:425-439